

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Niyozov Syxrob

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika Insitituti 4-kurs talabasi

Anotatsiya: *Maqolada kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda raqamli transformatsiyaning ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar — elektron tijorat, onlayn savdo platformalari, raqamli marketing, raqamli logistika va ma'lumotlar tahlili — kichik tadbirkorlik subyektlariga yangi bozorlarni tezroq egallash, mahsulotlarni raqobatbardosh qilish, xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Maqolada shuningdek, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, malaka va bilimlarni oshirish, moliyaviy va soliq qo'llab-quvvatlash, hududiy va sektorlararo diversifikatsiya hamda monitoring va tahlil tizimini joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya kichik biznesning eksportdagi rolini kuchaytirib, hududiy iqtisodiy barqarorlik va milliy eksport salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, eksport salohiyati, raqamli transformatsiya, elektron tijorat, onlayn savdo platformalari, raqamli marketing, raqamli logistika, hududiy iqtisodiy rivojlanishi, surxondaryo viloyati*

Kirish

Kichik biznes tadbirkorlik hozirgi davrda butun dunyo iqtisodiyotining tayanchini ifodalaydi. Turli tarmoqlar va hududlarda ushbu korxonalar iqtisodiy o'sishni ta'minlash, bandlik imkoniyatlarini yaratish va jamiyat taraqqiyotini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'ziga xos dinamik va barqarorlikka qaramay, kichik biznes ko'pincha xalqaro bozorlarga chiqishda jiddiy muammolarga duch keladi. Bozorlarning globallashuvi kichik biznes uchun o'z ichki chegaralaridan tashqarida faoliyat yuritishi uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlarni ochib berdi. Biroq, xalqaro savdoning murakkabliklarini nazorat qilish bozor dinamikasi, me'yoriy-huquqiy bazalar, madaniy nuanslar va logistika muammolarini chuqur tushunishni talab qiladi. Ko'pgina kichik korxonalar uchun eksport istiqboli noaniqlik va risklarga to'la bo'lishi mumkin. Eksport faoliyati milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda, xalqaro hamkorlikni mustahkamlashda va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda zarur omil hisoblanadi. Shuningdek, eksport faoliyati kichik biznesning samaradorligini oshirish va uning global bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kichik biznes subyektlari faoliyatida eksportning ahamiyati

quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: Birinchidan, eksport iqtisodiy o‘shining muhim omillaridan biri sifatida tadbirkorlarga o‘z mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqish hamda daromadlarini oshirish imkonini beradi. Bu esa ularning raqobatbardoshligini kuchaytirish bilan birga mahalliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi. Masalan, Janubiy Koreyada kichik va o‘rta biznes eksporti mamlakat yalpi ichki mahsulotining sezilarli qismini tashkil etadi. Ikkinchidan, eksport bozorni diversifikatsiya qilish imkoniyatini yaratib, tadbirkorlarga mahalliy bozordagi talab va taklifdagi o‘zgarishlardan kelib chiqadigan xatarlarni kamaytirish, o‘z mahsulotlarini turli mamlakatlarda sotish imkoniyatini beradi. Masalan, Germaniyada kichik va o‘rta korxonalar eksport faoliyati orqali mahsulotlarini butun dunyo bo‘ylab tarqatib, biznes xatarlarini kamaytirishga erishgan. Uchinchidan, eksport faoliyati kichik biznesda yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Chunki tashqi bozorlarga chiqish uchun korxonalar o‘z ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga majbur bo‘ladi. Bu esa bandlik darajasining oshishiga olib keladi. Masalan, Hindistonda kichik biznesning eksport faoliyati tufayli yuzaga kelgan yangi ish o‘rinlari aholining bandligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynagan va ularning turmush darajasini yaxshilagan. To‘rtinchidan, xalqaro bozorlarda faoliyat yuritish tadbirkorlarni xalqaro standartlarga mos mahsulot va xizmatlar yaratishga undaydi. Bu esa ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirishni talab qiladi. Masalan, AQShda kichik biznes zamonaviy texnologiyalarni va ilg‘or ishlab chiqarish usullarini joriy etishga majbur bo‘lgan, bu esa ularning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilgan. Yuqorida keltirilgan holatlarga asosanib, mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish uchun kichik biznes va tadbirkorlarning eksport salohiyatini oshirish zarur degan xulosaga kelish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini chuqur tahlil qilish dolzarb vazifa sifatida maydonga chiqmoqda.⁸⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida raqamli iqtisodiyot va eksport salohiyatini oshirish masalalariga alohida urg‘u berib kelmoqda. Xususan, davlat rahbari tomonidan raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o‘shining asosiy drayveri sifatida baholanadi. Ushbu yondashuv kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini kengaytirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali tadbirkorlik subyektlari o‘z mahsulotlarini xalqaro bozorlarga tez va samarali olib chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayonda elektron tijorat platformalari, raqamli marketing vositalari va onlayn to‘lov tizimlari muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, kichik biznes subyektlari uchun an‘anaviy eksport kanallariga nisbatan

⁸⁰ O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari eksport salohiyatini oshirish: tahlil va prognozlash- Sharopova Nafosat Radjabovna. Toshkent. 04.2025.

raqamli platformalar ancha arzon va qulay hisoblanadi. Prezident innovatsion rivojlanish va axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali eksport hajmini oshirish mumkinligini qayd etadi. Bu esa kichik biznesning global bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Prezident nutqlari raqamli transformatsiya va eksportni rivojlantirish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Prezidentning PQ-4611-sonli qarori mamlakatda eksport faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Qaror asosida eksport qiluvchi korxonalariga turli moliyaviy va tashkiliy yordam mexanizmlari joriy etilgan. Kichik biznes subyektlariga eksport bilan bog'liq xarajatlarni qoplash, jumladan transport, sertifikatlash va marketing xarajatlari uchun subsidiyalar ajratish nazarda tutilgan. Bu esa kichik korxonalar uchun eksportga kirishdagi moliyaviy to'siqlarni kamaytiradi. Qarorda eksport jarayonlarini raqamlashtirishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Elektron shartnomalar tizimi, onlayn monitoring va "yagona darcha" tamoyili asosida xizmatlar ko'rsatish eksport faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshiradi. Natijada, kichik biznes subyektlari xalqaro bozorlarda faolroq ishtirok eta boshlaydi.⁸¹

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PF-60-sonli farmoni yangi O'zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi va unda eksportni kengaytirish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muhim vazifalar sifatida qayd etilgan. Farmonga muvofiq, kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ulushini oshirish va ularni eksport faoliyatiga keng jalb etish ko'zda tutilgan. Bu jarayonda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlarini kengaytirish va IT xizmatlarini ommalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, startaplarni rivojlantirish va ularni eksportga yo'naltirish orqali yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa kichik biznesning nafaqat ichki, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu strategiya kichik biznesni raqamli transformatsiya orqali global iqtisodiyotga integratsiya qilishga qaratilgan.⁸²

Adabiyotlar tahlili

Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda raqamli texnologiyalarning o'rni tobora ortib borayotgan dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Xususan, raqamli transformatsiya jarayoni iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga chuqur kirib borib, biznes yuritish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Ilmiy adabiyotlarda raqamli transformatsiya korxonalarining ichki jarayonlarini optimallashtirish, innovatsion faoliyatni kuchaytirish va global bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytiruvchi kompleks jarayon sifatida izohlanadi. Shu nuqtai nazardan, kichik biznes

⁸¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentning PQ-4611-sonli qarori

⁸² O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning PF-60-sonli farmoni

subyektlari uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish eksport faoliyatini rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlarda qayd etilishicha, raqamli transformatsiya kichik biznes faoliyatiga bir qator ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, raqamli infratuzilmaning rivojlanganligi, inson kapitalining raqamli ko'nikmalarga egaligi hamda innovatsion boshqaruv tizimlarining joriy etilishi korxonalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kichik biznes subyektlarining moslashuvchanligi va tezkor qaror qabul qilish imkoniyati raqamli texnologiyalarni tez joriy etish uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada, ular yirik korxonalariga nisbatan tezroq transformatsiyalashib, yangi bozorlarni egallash imkoniyatiga ega bo'ladi. Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar raqamli texnologiyalarning kichik biznes samaradorligiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, elektron tijorat, mijozlar bilan aloqalarni boshqarish tizimlari (CRM), korxonalar resurslarini rejalashtirish tizimlari (ERP) hamda elektron to'lov tizimlari biznes jarayonlarini soddalashtiradi va tezlashtiradi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va foyda hajmini ko'paytirishga olib keladi. Shu bilan birga, raqamli marketing vositalari yordamida kichik biznes subyektlari o'z mahsulotlarini keng auditoriyaga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Adabiyotlarda eksport salohiyatini oshirishda raqamli texnologiyalarning roli alohida o'rganilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, raqamli platformalar va elektron tijorat tizimlari kichik biznes uchun eksportning asosiy kanallaridan biriga aylanmoqda. Xususan, xalqaro marketplace'lar orqali kichik korxonalar vositachilarsiz to'g'ridan-to'g'ri xorijiy iste'molchilarga mahsulot sotish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa eksport jarayonidagi xarajatlarni kamaytirish bilan birga, foyda marjasini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli logistika tizimlari, elektron bojxona xizmatlari va onlayn monitoring tizimlari eksport operatsiyalarining shaffofligi va tezkorligini ta'minlaydi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlarda raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi kichik biznes faoliyatini yanada samarali tashkil etishga yordam berishi ta'kidlanadi. Avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv vositalari yordamida korxonalarda mehnat unumdorligi oshadi, resurslardan foydalanish optimallashtiriladi va boshqaruv qarorlari qabul qilish jarayoni tezlashadi. Zamonaviy yondashuvlardan biri bo'lgan ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) esa korxonalariga aniq va asosli strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Ushbu sohada bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan, kichik biznes subyektlarida raqamli ko'nikmalarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi hamda infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi raqamli transformatsiya jarayonini sekinlashtiruvchi omillar sifatida qayd etiladi. Eksport bozorlariga chiqish bo'yicha yetarli axborotning mavjud emasligi ham kichik biznes uchun muhim muammolardan biri hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili xulosalari shuni ko'rsatmoqdaki raqamli

transformatsiya kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar orqali biznes jarayonlari optimallashtiriladi, yangi bozorlar o‘zlashtiriladi va raqobatbardoshlik darajasi oshadi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish va raqamli transformatsiya jarayonini yanada chuqurlashtirish uchun kompleks yondashuvga asoslangan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish zarur.

Tadqiqot metadalogiyasi

Zamonaviy iqtisodiyotda kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirish masalasi milliy iqtisodiy rivojlanish va hududlararo raqobatbardoshlikni ta‘minlash nuqtai nazaridan dolzarb hisoblanadi. So‘nggi yillarda global iqtisodiyotda raqamli transformatsiya jarayonlari biznes faoliyatining barcha bosqichlariga ta‘sir qilmoqda: ishlab chiqarish, marketing, savdo, logistika va boshqaruv jarayonlari raqamlashtirilmoqda. Shu bois, kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda raqamli texnologiyalarning transformatsion roli nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki milliy ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishni ta‘minlashda muhim omil sifatida ko‘rilmoqda. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish jarayonlarini tizimli tahlil qilish va ularning transformatsion samaradorligini aniqlash. Shu bilan birga, tadqiqot kichik biznesning hududiy tafovutlarini, raqamli transformatsiya darajasini va eksport hajmiga ta‘sirini o‘rganishga qaratilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u raqamli texnologiyalarni kichik biznes eksport faoliyatida transformatsion vosita sifatida o‘rganadi. Avvalgi tadqiqotlar asosan yirik korxonalar yoki milliy darajadagi eksport statistikasi bilan cheklangan bo‘lsa, ushbu ish kichik biznes subyektlarining hududiy va sektoral o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Shu bilan birga, raqamli platformalar, elektron tijorat tizimlari, onlayn marketing va raqamli logistika vositalarining kichik biznes eksportiga ta‘siri sistematik tarzda tahlil qilinadi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi



Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini ifodalovchi statistik ma'lumotlar tahlili ushbu hududda so'nggi yillarda iqtisodiy faollikning sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Xususan, 2021–2025 yillar oralig'ida eksport hajmi va uning tarkibida kichik biznes ulushining o'zgarishi viloyatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning natijadorligini aks ettiradi. Avvalo, eksport hajmi dinamikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2021 yilda 74,8 mln AQSH dollarini tashkil etgan eksport hajmi 2022 yilda 93,8 mln dollarga yetib, 19 mln dollarga oshgan. Bu davrda o'sish nisbatan barqaror bo'lib, asosan mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va tashqi savdo aloqalarining asta-sekin kengayishi bilan izohlanadi. 2023 yilda eksport hajmi 109,8 mln dollarni tashkil etib, o'sish davom etgan, biroq bu davrda o'sish sur'ati hali yuqori darajaga chiqmaganini ko'rish mumkin. Asosiy burilish nuqtasi 2024 yilga to'g'ri keladi. Ushbu yilda eksport hajmi 170,9 mln dollarga yetib, bir yil ichida 61,1 mln dollarga oshgan. Bu esa avvalgi yillarga nisbatan ancha yuqori o'sish sur'atini anglatadi. Mazkur keskin o'sishni bir nechta omillar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, eksport qilinadigan mahsulotlar turining kengayishi va ularning raqobatbardoshligi oshgan bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, logistika infratuzilmasining yaxshilanishi, transport xarajatlarining optimallashtirilishi eksport hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar, xususan elektron tijorat, onlayn savdo platformalari va raqamli marketing vositalarining joriy etilishi kichik biznes subyektlariga yangi bozorlarni tezroq egallash imkonini bergan. 2025 yilga kelib eksport hajmi 266,5 mln AQSH dollarini tashkil etib, yana keskin o'sish kuzatilgan. Bu o'sish 2024 yilga nisbatan 95,6 mln dollarni tashkil etadi va butun tahlil davridagi eng yuqori o'sish

sur’ati hisoblanadi. Bu holat viloyatda eksport faoliyati yangi bosqichga ko‘tarilganini, ya’ni nafaqat mavjud bozorlar kengayganini, balki yangi tashqi bozorlar ham o‘zlashtirilganini anglatadi. Umuman olganda, 2021–2025 yillar davomida eksport hajmi qariyb 3,5 barobarga oshgani Surxondaryo viloyatining eksport salohiyati sezilarli darajada kuchayganini ko‘rsatadi. Endi kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy eksportdagi ulushi dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2021 yilda bu ko‘rsatkich 52,0 foizni tashkil etgan. Bu davrda kichik biznes eksportda muhim o‘rin egallagan bo‘lsa-da, hali yetakchi kuch darajasiga chiqmagan edi. 2022 yilda ulush 58,0 foizga yetib, kichik biznesning eksportdagi roli ortib borayotganini ko‘rsatadi. 2023 yilda esa bu ko‘rsatkich keskin oshib, 74,7 foizni tashkil etgan. Bu davrda kichik biznes eksportning asosiy drayveriga aylanganini ko‘rish mumkin. 2024 yilda kichik biznes ulushi 87,7 foizga yetib, maksimal darajaga chiqadi. Bu holat kichik tadbirkorlik subyektlari viloyat eksportining deyarli to‘liq qismini ta’minlayotganini anglatadi. Bunday yuqori ulush, odatda, kichik ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarining yuqori faolligi, moslashuvchanligi va tashqi bozorga tez chiqish qobiliyati bilan izohlanadi. Biroq 2025 yilda kichik biznes ulushi 72,6 foizgacha pasaygan. Bir qarashda bu salbiy holatdek ko‘rinsa-da, aslida bu iqtisodiyotda muayyan strukturaviy o‘zgarishlar yuz berayotganini bildiradi. Ya’ni, eksport hajmi oshib borayotgan bir paytda yirik korxonalar ulushi ham ortgan bo‘lishi mumkin. Natijada umumiy eksport tarkibida kichik biznes ulushi nisbatan kamaygan, ammo mutlaq qiymatda ularning eksport hajmi oshishda davom etgan. Bu esa iqtisodiyotda diversifikatsiya jarayoni boshlanganini va eksport tarkibi yanada muvozanatlashayotganini ko‘rsatadi. Hududiy kesimdagi tahlil ham muhim ahamiyatga ega. Ma’lumotlarga ko‘ra, Oltinsoy, Bandixon, Qiziriq, Sariosiyo va Uzun tumanlarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksportdagi ulushi 100 foizni tashkil etgan. Bu esa ushbu hududlarda eksport faoliyati to‘liq kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilayotganini anglatadi. Mazkur holat bir tomondan kichik biznesning yuqori faolligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan yirik sanoat korxonalarining yetarli darajada rivojlanmaganini ham bildirishi mumkin. Shu sababli kelgusida bu hududlarda yirik ishlab chiqarish loyihalarini rivojlantirish orqali eksport tarkibini yanada diversifikatsiya qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tahlil natijalari Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati izchil va tez sur’atlarda rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Eksport hajmining keskin oshishi, kichik biznes ulushining yuqori darajada bo‘lishi hamda ayrim hududlarda 100 foizlik ko‘rsatkichga erishilgani ushbu sohaning iqtisodiyotdagi muhim o‘rnini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, eksportdagi o‘sish zamonaviy iqtisodiy mexanizmlar, xususan raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron savdo tizimlaridan foydalanish, logistika va bojxona jarayonlarini soddalashtirish bilan chambarchas bog‘liq ekanini ta’kidlash lozim. Surxondaryo viloyati misolida kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda raqamli

transformatsiya, infratuzilmani rivojlantirish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uyg‘unlashuvi muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa

Raqamli transformatsiya kichik biznes subyektlarining eksport faoliyatini samarali rivojlantirishda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qiladi. Surxondaryo viloyati misolida 2021–2025 yillar davomida kichik biznes subyektlarining eksport hajmi 74,8 mln AQSH dollaridan 266,5 mln dollargacha oshgan. Shu bilan birga, kichik biznesning umumiy eksportdagi ulushi 87,7 foizga yetgan bo‘lib, ayrim tumanlarda bu ko‘rsatkich 100 foizni tashkil etgan. Bu holat kichik tadbirkorlik subyektlarining hududiy iqtisodiyotdagi yetakchi rolini va eksportdagi asosiy drayver sifatidagi ahamiyatini aniq ko‘rsatadi. Eksportning sezilarli o‘sishi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan bevosita bog‘liqdir. Jumladan, elektron tijorat, onlayn savdo platformalari, raqamli marketing, raqamli logistika va ma’lumotlar tahlili kabi raqamli vositalar kichik biznes subyektlariga eksport bozorlarini tezroq egallash, mahsulotlarni raqobatbardosh qilish, xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Shu tariqa, raqamli texnologiyalar kichik biznesning eksport salohiyatini oshirishda transformatsion rol o‘ynaydi va uni zamonaviy iqtisodiy talablar darajasiga olib chiqadi. Shu asosda tadqiqot doirasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish zarurati mavjud. Bu doirada kichik biznes subyektlari uchun elektron savdo va to‘lov platformalarini kengaytirish, shuningdek, mahalliy mahsulotlarni xalqaro bozorlarga chiqarish uchun onlayn eksport portalini yaratish tavsiya etiladi. Bu chora-tadbirlar kichik biznes subyektlarining tashqi bozorlar bilan bog‘lanishini soddalashtiradi va eksport jarayonini tezlashtiradi. Ikkinchidan, malaka va bilimlarni oshirish muhim hisoblanadi. Kichik tadbirkorlar uchun raqamli marketing, onlayn savdo, e-logistika bo‘yicha treninglar tashkil etish, shuningdek, eksport bozorlarini o‘rganish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha seminarlar o‘tkazish tavsiya etiladi. Bu tadbirlar kichik biznes subyektlarining strategik qaror qabul qilish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish qobiliyatini oshiradi. Uchinchidan, moliyaviy va soliq qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish zarur. Raqamli transformatsiya jarayonini joriy etgan kichik biznes subyektlariga imtiyozli kreditlar va grantlar berish, shuningdek, eksportni rivojlantirish uchun bojxona va soliq tartiblarini soddalashtirish tavsiya qilinadi. Bu chora-tadbirlar kichik biznes subyektlarini moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash orqali raqamli transformatsiyani kengaytiradi va eksport faoliyatini rag‘batlantiradi. To‘rtinchidan, hududiy va sektorlararo diversifikatsiyani ta’minlash muhimdir. Ayrim tumanlarda kichik biznesning eksportdagi ulushi 100% bo‘lganligi sababli, yangi ishlab chiqarish loyihalari va yirik korxonalarni jalb etish orqali eksport tarkibini diversifikatsiya qilish, shuningdek, mahalliy resurslar va hududiy xususiyatlar asosida ixtisoslashgan eksport sektorlarini rivojlantirish tavsiya etiladi.

Bu esa eksportni barqarorlashtiradi va hududiy iqtisodiy farovonlikni oshiradi. Beshinchidan, monitoring va tahlil tizimini joriy etish zarur. Raqamli platformalar orqali kichik biznesning eksport faoliyatini real vaqtda kuzatish, eksport jarayonidagi raqamli ma'lumotlar asosida siyosat va strategiyalarni doimiy takomillashtirish kichik biznesning samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashga yordam beradi. Surxondaryo viloyati tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda raqamli texnologiyalar nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki hududiy iqtisodiy barqarorlik va milliy eksport salohiyatini mustahkamlaydi. Taklif qilingan chora-tadbirlar amalga oshirilganda, kichik biznes eksportdagi ulushini yanada oshiradi, yangi bozorlarni egallaydi va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, bu esa hududiy va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PQ-4611-sonli qaror: Eksport faoliyatini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida, Toshkent, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. PF-60-sonli farmon: Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Toshkent, 2020.
3. Mirziyoyev, Sh. Raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish strategiyasi nutqlari, Toshkent, 2022.
4. World Bank. SME Export and Digital Transformation: Global Trends, Washington D.C., 2021.
5. OECD. Enhancing SME Competitiveness through Digitalization, Paris, 2020.
6. European Commission. Digital Tools for SME Internationalization, Brussels, 2021.
7. Kim, J., & Lee, H. Small and Medium Enterprises Export Performance in South Korea, Seoul Journal of Economics, 2019; 32(2): 45–67.
8. Müller, S., & Schmidt, T. SME Export and Risk Diversification in Germany, Journal of International Business Studies, 2020; 51(4): 589–607.
9. Sharma, R., & Patel, K. Impact of SME Exports on Employment in India, Indian Economic Review, 2018; 53(1): 89–110.
10. Porter, M. Competitive Advantage and Internationalization of SMEs, Harvard Business Review, 2017; 95(6): 112–123.
11. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies, New York: W.W. Norton, 2014.
12. Laudon, K., & Traver, C. E-Commerce 2021: Business, Technology and Society, 16th edition, Pearson, 2021.

13. Heeks, R. Implementing and Managing Digital Transformation in Small Firms, Information Technology for Development, 2018; 24(3): 362–383.

14. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice, 8th edition, Pearson, 2020.

15. Turban, E., et al. Electronic Commerce: A Managerial and Social Networks Perspective, 9th edition, Springer, 2018.